QO‘QON XONLIGI AHOLISI

B. B. Ibraximov
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: Qo‘qon xonligi XIX asrda ko‘p millatli davlat sifatida shakllangan bo‘lib, XIX asrning 70-yillarida uning aholisi 3 milliondan ortiqni tashkil etgan. Xonlik hududida turli millatlar, jumladan o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar va boshqa xalqlar yashagan. Aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etib, undan keyingi o‘rinda tojiklar turgan. Tojiklar asosan Farg‘ona vodiysining turli hududlarida istiqomat qilib, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar. Shu bilan birga, qozoqlar va qirg‘izlar ko‘chmanchi hayot tarzini davom ettirib, asosan chorvachilik bilan kun kechirganlar. Qoraqalpoqlar esa tarixiy sharoitlar, xususan jung‘orlar hujumi oqibatida yangi hududlarga ko‘chib joylashishga majbur bo‘lganlar. Bundan tashqari, uyg‘ur va dungan xalqlari Xitoy imperiyasi bosimi tufayli Sharqiy Turkistondan Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelganlar. Xonlik hududida ruslar va tatarlar ham yashab, ular savdo va hunarmandchilik orqali shahar hayotida muhim o‘rin egallaganlar. Shu tariqa, turli millat vakillarining bir hududda yashashi va faoliyat yuritishi natijasida Qo‘qon xonligi o‘ziga xos ko‘p millatli va madaniy jihatdan rang-barang tarixiy makon sifatida shakllangan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, ko‘p millatlilik, aholi soni, o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qoraqalpoqlar, uyg‘urlar, dunganlar, savdo va hunarmandchilik.

Qo‘qon xonligi ko‘p millatli davlat hisoblanib, ma’lumotlarga ko‘ra, XIX asr 70-yillarida xonlik aholisining umumiy soni 3 milliondan ortiq bo‘lgan. Xonlik hududida o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qoraqalpoqlar, uyg‘urlar, yahudiylar, arablar, eronliklar, ruslar, tatarlar, dunganlar va boshqa xalqlar yashagan. Son jihatdan aholining ko‘pchiligini o‘zbeklar tashkil etgan. Undan keyingi o‘rinda tojiklar turgan. Ular, asosan, O‘ratepa, Xo‘jand, Konibodom, Isfara, Qorategin, So‘x, Rishton, Chust, Kosonsoy hududlarida yashaganlar. Ulaming asosiy xo‘jaligi dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo va qisman, chorvachilikdan iborat bo‘lgan.

Qozoqlar Sirdaryo qirg‘oqlari, Janubiy Qozog‘iston past tekisliklarida ko‘chmanchilik turmush tarzida yashab, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullangan. Qoraqalpoqlarning bir qismi tarixiy vatanlaridan jung‘orlaming hujumi oqibatida Sirdaryo bo‘ylab yangi yerlarga ko‘chishga majbur bo‘lganlar. Ularning bir qismi Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashib qolishgan bo‘Isa, boshqa bir qismi XVIII asr oxiri - XIX asr boshlarida Qo‘qon xonlari ruxsati bilan Farg‘ona vodiysining markaziy cho‘llariga kelib joylashganlar.

Qirg‘izlar qoraqirg‘izlar deb yuritilib, Farg‘ona vodiysining janubi-sharqiy va shimoli-sharqiy hududlarida yashaganlar. Manbalarda ularning umumiy soni 300 ming deb ko‘rsatilgan bo‘lib, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. XVIII asr o‘rtalarida Erdonabiy ulami bo‘ysundirishga harakat qilgan bo‘lsa-da, bu ishni amalga oshira olmagan. Bu harakat Norbo‘tabiy va Olimbek davrlarida ham davom etgan. Faqatgina Umarxon hukmronligining oxirlaridagina qirg‘izlar ustidan nazorat o‘matilgan.

Xonlik hududidagi uyg‘urlar awal Xitoyga qarashli bo‘lgan Sharqiy Turkiston hududlarida yashaganlar. XVIII asr o‘rtalarida Xitoy imperatorlarining tazyiqi ostida Farg‘ona vodiysiga (asosan, O‘sh, Andijon, Shahrixon hududlariga) ko‘chib kelgan. Ko‘chish XIX asrda ham davom etgan. Manbalarda ulaming soni 70-80 ming bo‘lganligi ko‘rsatilgan. Uyg‘urlaming bir qismi keyinroq o‘z vatanlariga qaytib ketganlar.

Dunganlar ham uyg‘urlar singari Xitoy imperiyasining tazyiqi oqibatida Sharqiy Turkistondan ko‘chib kelganlar. Ulaming bir qismi xonlik hududi orqali Rossiyaga ko‘chib o‘tgan bo‘lib, qolganlari esa xonlik hududiga kelib o‘mashganlar (hozirgi kunda dunganlar Qirg‘izistonning Chuy vodiysida istiqomat qiladi).

Ruslar va tatarlami xonlik shaharlarida tez-tez uchratish mumkin edi. Ruslar va tatarlar savdo va sayyohlik orqali O‘rta Osiyoga ko‘chib kelgan. Ular usta hunarmand bo‘lganliklari uchun Qo‘qon xonlari tomonidan himoyaga olingan. Tatarlami Qo‘qon shahri madrasalarida talaba

sifatida ham uchratish mumkin bo‘lgan. Ular musulmon bo‘lganliklari uchun mahalliy qizlar bilan nikohdan o‘tishlari qiyin emas edi. Umumiy diniy e’tiqod tatarlaming xonlik shaharlarida muqim o‘mashib olishlarining eng muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев У.С. Фаргона водийсида этнослар аро жараёнлар. (XIX-XX аср бошлари). - Тошкент, 2005.

2. Ахмедов Б. А. Узбекистан тарихининг манбалари. -Т.,Фан, 1991.

3. Бейсембиев Т. К. «Тарихи - Шахрухи» как исторический источник. - Алма-ата: Наука, 1987.

4. Бабабеков Х. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки (XVIIIXIX вв.). - Ташкент: Фан, 1990.